

Markaz rahbari

Muxammedova Malika Akilovna

Telefon: (0 371) 238-64-70

E-mail: tuit@tuit.uz

Axborot resurs markazi – ARM (2007 yilgacha Universitet kutubxonasi) 1955 yilda tashkil etilgan. ARM fondi Moskva, Leningrad, Odessa elektrotexnika aloqa institutlari tomonidan yuborilgan ijtimoiy, fizika, matematika va ximiya fanlari bo'yicha bir necha yuzlab kitoblardan iborat bo'lgan. Shu yilning o'zida Toshkentning kitob do'konlaridan adabiyotlarni sotib olish boshlangan. 1956 yilning 1 yanvarida kutubxona fondi 4395 nusxali kitob tashkil etar edi. 15 o'qituvchiga va 153 talabaga xizmat ko'rsatar edi. Hozirgi kunda ARM yagona kitobxonlik guvohnomasi bilan 6 ming kitobxonga va elektron manbalardan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatmoqda. Kitobxonlar orasida universitet talabalari, professor-o'qituvchilar tarkibi, xodimlari, aspirantlaridan tashqari boshqa oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari, telekommunikatsiya sohasidagi korxonalar xodimlari ham mavjud. ARM abonement tizimi orqali kitoblarni uyda hamda qiroatxonalarda foydalanishning keng imkoniyatini yaratadi. ARM an'anaviy, ya'ni qog'ozda tashuvchi va elektron ma'lumotlardan iborat.

An'anaviy kutubxona 4 ta abonementdan: ilmiy, o'quv, badiiy va chet el adabiyotlari, 2 ta qiroatxonadan, adabiyotlarni komplektlash va ilmiy ishlov berish va ma'lumot-bibliografik bo'limlardan iborat.

Elektron kutubxona – 3 ta zaldan iborat: 2 ta zal talabalar uchun (70 kompyuter) va 1 ta – o'qituvchilar va xodimlar uchun. Asosan barcha xizmat ko'rsatish bo'limlarida 12 ming kitobxonga xizmat ko'rsatiladi. Kutubxonadan kun mobaynida o'rtacha xisobda 520 kitobxon foydalanadi, adabiyotlarni berish yiliga taxminah 240 mingni tashkil etadi.

Kutubxona fondi bugungi kunda 323 ming nusxa atrofida bo'lgan kitoblar, broshyuralar, jurnallar, CDlar tashkil etadi. Fondning 61% o'quv adabiyotlar 32% – ilmiy, 5% – badiiy, qolganlari – boshqa adabiyotlar tashkil etadi. Yil mobaynida kutubxona 6 ming kitob oladi, 50 nomli jurnallar va 65 nomli gazetalarga obuna bo'ladi.

Kutubxona kitobxonlar bilan turli xil ishlar va metodlar olib boradi:

- mavzuli kitobli-illyustrativli, hamda yangi adabiyotlar ko'rgazmalari o'tkaziladi;
- har doim yangi kelgan adabiyotlarga byulletenlar ochiladi;
- 1980 yildan kutubxona kafedra kunlarini o'tkazadi;
- 1983 yildan bitiruvchilar kunlari, hozir esa bakalavriyat bitiruvchilari, adabiyotlarni ochiq ko'rish, ma'lumotli sharhlar olib boriladi;

Bizning kitobxonlarga: kutubxonaning kitob fondiga an'anaviy kitobxon katalogi (tizimli va alfavitli), aloqa bo'yicha maqolalarning tizimli kartotekalari, Respublikaning hozirgi hayotiga doir aktual savollar bo'yicha mavzuli kartotekalari bo'yicha keng ma'lumot apparati mavjud.

Oxirgi yillarda yangi axborot texnologiyalarni kiritish, kutubxona-axborot jarayonida kompyuterlashga katta ahamiyat berildi. Ushbu yo'nalish bo'yicha ilk qadamlar o'tgan asrning 90-yillarida yo'lga qo'yilgan. 1998 yilning dekabr oylarida Antverpen oliy maktabi kutubxonasi bilan Libanta qo'shma loyihagini ishlab, aspirantlar qiroatxonasi tashkil etildi, 2 kompyuter, televizor magnitofon bilan, videokasseta va lazer disklarning katta kolleksiyasi, ingliz tilidagi kitoblar, IRBIS dasturi, yangi UDK jadvalining elektron nusxasi sotib olindi. Libanta loyihasi asosida Rossiya Davlat ilmiy-texnika kutubxonasi mutaxassislari tomonidan seminar o'tkazilib, unda Toshkentning katta kutubxonalari xodimlari ishtirok etishdi. Shundan boshlab

TATU kutubxonasida Irbis dasturi bazasida elektron katalog yaratila boshladi. 2001 yil universitet Elektron kutubxona yaratishni boshladi.

TATU kutubxonasi mavjud bo'lganlarda to'xtamasdan kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning va ular bilan ishlash metodlarining yangi ko'rinishini amaliyotga tadbiq etishda davom ettirmoqda. Ishlari uchun bir necha marta faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Manbalar

- Kutubxona fondi 2015 yilda - 322 317 nusxa (40762nom)
- Kitoblar 244 590 nusxa. (413 nom)
- Davriy nashrlar - 12 843 nusxa. (85 nom)
- Dissertatsiyalar, avtoreferatlar - 2966
- CD-disklar - 2 412 nusxa

Ulardan:

- ilmiy adabiyotlar - 100 870 nusxa (23 513 nom)
- o'quv adabiyotlar - 194 845 nusxa (3728 nom)
- badiiy adabiyotlar - 13 662 nusxa (10 648 nom)
- chet el adabiyotlari - 16 321 nusxa (3 543 nom)
- boshqa adabiyotlar - 12 843 nusxa (2873 nom)

Asosiy ish ko'rsatkichlari :

- Yagona kitobxonlik guvohnomasi bilan bo'lgan kitobxonlar soni - 5150
- Barcha kitob berish punktlarida asosli xizmat ko'rsatilgan son- 16 422
- Foydalanganlar soni - 182 493
- Berilgan adabiyotlar soni: 338 783
- an'anaviy tashuvchilarda - 277 287
- elektron tashuvchilarda - 61496